

## **Adabiy til va istilox**

Til, imlo va istilox kanferensiyasining ko‘radigan masalalaridan “til va istilox” ustida yuritmakchi bo‘lamiz, istilox asli tilga bog‘li bo‘lg‘onidan bu ikki masalani barobar olib boramiz.

### **Eski yozuv o‘zgarish**

Eski o‘zbek adabiy tili (to‘g‘riroq aytganda yozuv tili) yangi madaniyat va yangi turmush taqozosig‘a qarab tuzatilishga albatta muxtoj edi. Chunki bu yangi madaniyatning “ilmiy mafhum, falsafiy oqish, adabiy tushuncha, she‘riy sezgilarini ko‘rsatuvchi yangi so‘z va yangi uslublarga muxtoj bo‘ldi.”

Eski o‘zbek adabiy tili “diniy zexniyat, fardiy hayot, aristokratik davr” larni tamsil qila kelganidan albatta u hozirg‘i “materialistik zehniyat” ijtimoiy xayot va “demokratik” davrini tugal tamsil qila olmas edi. Bu to‘g‘rida eski adabiy tilning xoh bir istiqroti qismi, xoh xalq qismi farqsiz bir xoldir. Shu sababli eski adabiy tilni eski madaniyat tasiridan chiqarmoq va yangi madaniyat taqozosig‘a qorob qurmoq – tuzatmak kerak edi. Bu bir extiyoj edi.

O‘zbek yangi adabi bu extiyoj inqilobning avvalidanoq (Chig‘atoy gurungining boshlashi bilan) sezilib, bu yo‘lda anchagina tajribalar ko‘rilgan bo‘lsada, bukun masalaga asosidan boshqacharoq qarash kerak bo‘ladi. Tilning o‘z xususiyatlari tarixiy oqimi va turli davrlarni o‘tkazib so‘ng olg‘on shaklini ko‘zda tutib turub yana ham ilmiyrak asoslar qurmoq extiyoji seziladi.

### **Yangi adabiy til uchun asoslar**

Yangi adabiy tilning bosh asosi “adabiy til bilan – ommaning so‘zlash, tilini bir-biriga yaqinlashdirish” bo‘lishi kerak. Biz bu asosni qabul qilish bilan, usulsiz va sistemasiz tusda amalga osha borg‘on axvolni tasdiq va uning bir maqsad bo‘lg‘onini iqror qilg‘on bo‘lamiz. Shuni ham xotirada tutmak kerak-ki adabiy tilni omma tiliga yaqinlashdirish bilan, ba‘zi “kansirvatur” adiblarning tushunganlari kabi adabiyot uchun kamchilik kelmaydi. Eng sodda bir til bilan eng yuqori fikrlarni anglatmoq mumkindur. Ijtimoiy xayotning adabiy tilini omma tiliga yaqinlashdirish bo‘lg‘onda ikki nuqta bilan qorshilashamiz. Uning biri “eski madaniyat” tasiri bilan o‘zbekchaga qanday qarash, ikkinchisi “yangidan kerak bo‘lg‘on so‘zlarni o‘zbekchaga qanday shaklida olish”.

### **Arabcha va forsha so‘zlar**

Adabiy tilni omma tiliga yaqinlashdirmoq bo‘lg‘onda, albatta eski adabiy tilni soddalashtirish va omma xalqining qulog‘idan va zehnidan uzoq bo‘lg‘on ko‘b arabcha va forsiycha so‘zlarni tildan chiqorish kerak bo‘ladi. Lekin bu ishda Chig‘atoy gurungining boshda tutqon yo‘li kabi umumiy – yalpi yo‘l tutmoq yanglishdur. Tilni soddalashdirishda yuqorida aytganimiz kabi uning o‘z xususiyatlari, tarixi oqimi va so‘ng olg‘on shaklini ko‘zda tutish albatta lozim bo‘ladi. Bu nuqtalardan qorog‘onda o‘zbek tilining arabcha va forsiycha so‘zlardan

tamom qutila olmaslig'i ko'rinadi. Arabcha va forsiycha so'zlardan tozlashni ma'lum bir darajada qilishdan boshqa chora qolmaydi, chunki arabcha va forsiycha o'zbekning yolg'uz adabiy tili emas, balki omma tili ham anchagina tasirlanib qolg'on omma tilining tasirlanishi bilan "adabiy tilning tasirlanishi orasida katta va asosiy farq bor: adabiy til arabcha va forsiychadan olg'on so'zlarini o'z talafuzi, o'z ma'nosi va o'zgarish yasomog'on. So'ngra ko'b so'zlarni extiyoj uchun emas, balki arabcha va forsiychaning tasiriga berilish bilan va ularg'a muxabbat saqlamoq bilan olg'on".

Omnia tili bo'lsa arabcha va forsiychadan olg'on so'zlarini asil shevaga singitib yuborg'on. Oling'on so'zlardan ko'plarining o'zbekchadagi qarshiliqlari unutilib ketgan.

"Xozir, xabar, tark, qoida, maslaxat, pora, shakar, yor" kabi ko'b so'zlar o'zbekchada qarshiliqlari qolmog'on so'zlardan sanaladi.

Omnia tili ko'b so'zlarni o'z ma'nolaridan boshqa ma'nolarda ham ishlata beradi. "Ovqat, kasal, maraz, jahil, pora" kabi so'zlar shunday so'zlardandir. Chunki "ovqat" arabchada "vaqt" ning jam' sig'asidir. Omnia tilida yemak, tomoq ma'nosidadur. "Kasal" arabchada "yalqovliq" o'zbekchada xastaliqdir. Maraz arabchada mutlaq xastaliq, o'zbekchada tuzalishi qiyinlashqon bir yarodur. "Pora" forsiychada "bo'lak" ma'nosida, o'zbekchada "rishvot" ma'nosidadur. "Jahil" arabchada bilimsizlik o'zbekchada g'azab va qahr ma'nosidadir.

So'ngra omnia tili arabcha va forsiychaga xos bo'lg'on xarflar bilan yozilg'on talaffuzini buzub so'zlaydur, omnia tilining buning kabi xususiyatlarini yana sanamoq mumkindur.

Demak omnia tili arabcha va forsiychadan tasirlangan bo'lsada, o'z istiqlolini qo'ldan bermagan, boshqa tillardan oling'on so'zlarni tamsil qilib, olg'on, zotan turkiy tillarning omnia qismining tamsil xissasi quvatli bo'lg'onini, qoy yerda bo'lsa ham o'zini yuqotmag'onini, balki u yerga ta'sir qilg'onini ulug'ustod profisur Bartuld ham so'zlaydi.

Shu xolda o'zbekchani arabcha va forsiychadan tozalamoq bo'lg'onda omnia tilining o'zlashdirib olg'on so'zlariga tegmaslik kerak bo'ladi. Unday o'zlashib va shevaga singib ketgan so'zlarni chiqorish tilni bo'shdan bo'shga buzish bo'lib chiqodi. Menimcha arabcha va forsiycha so'zlarni chiqorishdan quyidag'i asoslarni tutish kerakdur:

1) o'zbekchada muqobili bo'lg'on, hamda o'zbek omnia tiliga singmagan arabcha forsiycha so'zlarni albatta chiqorilur.

Bu asosga binoan "nusrot, fath, nosiya, muboriz, mastur, fosh, xurram, poymon, pinhon" kabi so'zlarni tamom ishdan chiqorilur.

2) o'zbekchada muqobili bo'lg'on va bir daraja shevaga o'rnashqon so'zlarning ham o'zbekchalari saqlanib arabcha va forsiychalari tark qilinur.

Bunga ko‘ra, “amr, sayid, shabnam, shoda, saxro, g‘alaba, xarb” kabi so‘zlarni ham ishdan chiqorish kerak. Chunki bularning o‘zbekchada tanilg‘on muqobillari bor.

3) arabcha va forsiycha so‘zlarning o‘zbekchadagi muqobillari o‘zlari qadar ma‘lum bo‘lmasa, ularni shevada saqlamoq kerak.

Shu sababli “tamom, peshana, xayron, parishon, shirin, xotir” kabi so‘zlarni ishlatish kerak bo‘ladi. Chunki bularning muqobillari bo‘lg‘on “odosh, manglay, o‘kunmak, chochuq, chuchuk, ko‘ngil (xotir ma‘nosida bo‘lg‘onda)” kabi so‘zlarga ko‘ra ularni ishlatmak shevaga qulayliq beradi. Asosan bunday nuqtalardan so‘zlashda qoy birining yengil bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

4) o‘zbekcha muqobili bo‘lmag‘on yoki bo‘lsada unutilib ketgan arabcha va forsiycha so‘zlarni albatta saqlash kerak. Bunga ko‘ra “foyda, mol, halak, qasd, sayi, tark, insof, xabar, ma‘no, hamisha, doim, g‘am xasrat, ishrat, nasixat, dunyo, xarir” kabi so‘zlarni tark qilishqo urshish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

5) omma tilining buzub o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘nolarda ishlatib yuborg‘on “ovqat, pora, kasal, maraz” kabi so‘zlariga tegmaslik kerak. Bularni asil ma‘nolarida ishlatish tark qilinadi.

Arabcha va forsiycha lug‘atlar ustida bu asoslarni qabul qilg‘on bilan o‘zbekcha bo‘lmag‘on so‘zlarga qarshi bo‘lg‘on masalalarimiz eshilgan bo‘lmaydir. Bu to‘g‘rida qoydalar jihatidan ham ba‘zi asoslar qurmoq va bilgili sistemda turmak kerak bo‘ladi. Bu masala ustiga keganda, arabcha va forsiychadan olinib kelgan “sig‘a, odat, tarkib va istilox” masalalari kelib chiqdi. Bu to‘rt masala ustida ayrim ayrim to‘qtolishg‘a to‘g‘ri keladi.

### **Sig‘a**

Bir til boshqa bir tildan so‘z va istilox ola oladi. Bu xol yuqorida aytganimiz kabi madaniyat taqozolari bilan lozim ham bo‘lib qoldi. lekin boshqa tildan qoida ola olmaydi. Eski o‘zbek adabiy tilida arabcha va forsiychadan qoidalar ham olina bergan. Jumladan, sig‘alar ham ko‘p oling‘on “marosim, sharoit, xaloyiq, ajoyibot, mutasarif, musallax, mutaxayir, maxluq” kabi ko‘b so‘zlar sig‘a mohiyatida ham ishlatila kelganlar. Albatta bu xolni yo‘qotmoq lozim bo‘ladi. Ularning yerlarida “rasmlar, shartlar, xalqlar, ajoyiblar, tasarrif qilinuvchi, tasavvufchi, salohlang‘on, xayron bo‘lg‘uchi, yaratilgon” shakllarida o‘zbekcha adotlar bilan yozish kerak. Bu so‘zlarimizdan sig‘a mohiyatida emas, balki ism bo‘lib ishlatilib kelgan sig‘aliq so‘zlar ayrilib qolurlar. Masalan; “adabiyot, axloq, talaba” kabi so‘zlar sig‘a mohiyatida emas, ism bo‘lib ishlatiladilar. Shuning uchun bularni jam’ sig‘asida bo‘lsalarda “adabiyotlar, axloqlar, talabalar” shaklida “lar” adati bilan qoytodan jam’ qilib yozmoq – aytmak mumkindir. “Raxim, Raxmon, Mo‘min, Karim” kabi so‘zlar ham ot bo‘lg‘on taqdirda sig‘a mohiyatida bo‘lmaydilar.

“Maktub, kotib, rayis, muxarrir” kabi soʻzlarni ham sigʻa mohiyatida ishlatish toʻgʻri boʻlmaydi. Ularni “yozilgʻon, yozuvchi, boshlovchi, taxrir qiluvchi” maʼnolarida ishlatish toʻgʻri emas. Ammo ism qilib “majlis kotibi, majlis rayisi, kelgan xat, gazet muxarriri” shaklida qoʻllanish lozim boʻladi. “Yozgʻon maktublarim” soʻzidan boshqolorgʻa yozilgʻon xatlar iroda qilinsa boʻladi. Ammo har turli yozilgʻon qogʻozlarni iroda qilib boʻlmaydi, “maqolaning muxarriri” deb boʻlmaydi, “gazetaning muxarriri” deb boʻladi. “Maʼlum, magʻlub, gʻolib, mazmun” kabi soʻzlarda ham xol shundaydur.

Sigʻa toʻgʻrisida asosni bunday qoʻrgʻon chogʻda oʻzbekcha boʻlmagʻon bir soʻzni ishlatganda unday ishtiyoq qilingʻon boshqa soʻzlarni olishning yoʻli oʻz oʻzicha bekiladi. Masalan shart soʻzi olingʻonda “mashrut” soʻzini “vujud” soʻzi olingʻonda “mavjud” soʻzini, “ishtiyoq” soʻzi olingʻonda “mushtoq” soʻzini ishlatmakka yoʻl qolmaydi. Chunki bu xol soʻzlarni sigʻa mohiyatida ishlatgandagina mumkin boʻladi.

### **Adot**

Asl shevani buzadigʻon nuqtalardan biri arabcha va forscha adotlardur. Oʻzbek adabiy tilida xattoki omma tilida undoy adotlarning umumiy suratda boʻlmasada, anchagina ishlatila kelganlari koʻriladi. Forsiychadan “bon, ham, dor, mand, gar, na, be” adotlari, arabchadan “y, gʻayr” adotlari unda munda ishlatiladilar. Bu adotlarning “y” dan boshqani tamom ishdan chiqorish kerak boʻladi. Chunki bularning oʻzbekchada ishlatila kelgan, tonilgʻon muqobillari bor. Forsiychaning “ham” adoti yerida oʻzbekchada “dosh” bor. Shu xolda “hammaslik, hamfikir, hamqur” deyish oʻrnigʻa, “maslakdosh, fikrdosh, qoʻrdosh” deyish kerak. “Dir, mand” adotlari oʻrnida “lik, li” bor. “Tojdor, donishmand, aqlmand” deyish oʻrnigʻa “tojliq, donishliq, aqlliq” soʻzlarini xos qilish kerak boʻladi. “Gar, bon” adotlari oʻrnida “chi” bor. Shuning uchun “gulbon, saroybon, sitamchi, joduchi” soʻzlarini umumlashdirish kerak boʻladi. “No, be” adotlari oʻrnida “siz” bor. Shu xolda “bexabar, beaql, betamiz, bemisil, notamom, nochor” deyish oʻrnigʻa “xabarsiz, aqlsiz, tamizsiz, mislsiz, tamomsiz, chorasiz” deyish kerak.

Arabchaning “gʻayr” adatini ham tamom tashlash lozim boʻladi. Chunki bu adot oʻrnida maqomigʻa koʻra ishlatilganda turli rdomchi soʻzlarimiz bor, “gʻayri maʼlum” oʻrnigʻa “maʼlum emas, maʼlum boʻlmagʻan” deya olamiz va demakdamiz. “Gʻayri qonuniy” deyish oʻrnigʻa “qonunsizlik” deya olamiz. Chunki buning kabi soʻzlar shevamizda orolash ishlatiladilar. Shu xolda oʻzbekchasini olib, boshqosini toshlogʻon boʻlamiz.

Albatta bu asoslarimizdan asil soʻz bilan adot birgalashib ism boʻlib ketgan soʻzlar ajralib qolurlar. “Duradgon, soyabon, hamshira” kabi soʻzlarni undoy soʻzlardan sonoy olmaymiz. Uning kabi soʻzlarni buzub oʻzbekcha adot bilan soʻzlamak emas, balki oʻzbekcha muqobillari boʻlgʻonlarini tomom olib toshlosh

kerak bo‘ladi. Masalan hamshira “akushirka” ma’nosida bo‘lg‘onda soqlonadi. “Singil” ma’nosida bo‘lg‘onda chiqoriladi.

Yuqorida soqlog‘on adotlardan “y” adotini chiqorib bo‘lmaydi. Bu adot eski eski adabiy tilda qandoy ishlatilib kelgan bo‘lsa, yangi tilda ham ishlatilib kelgan. Eski tilda “rajabiy, iroqiy, Sheroziy” kabi musiqiy maqomlarni “forsiy, arabiy, turkiy” kabi ilmiy so‘zlarni ko‘ramiz. Yangi tilda ham “ilmiy, adabiy, ruhiy, tabiiy, ijtimoiy, xayotiy” kabi so‘zlarni ko‘b uchratamiz. Shu xolda bu adotni saqlamoq kerak bo‘ladi. Buning bilan barobar uni har bir yerda ishlata berish tilning ohangini buzadi. Uning ishlatiladigan yerlarini kamaytirish kerak. Masalan, “sharqiy kecha, adabiy kecha, xayotiy masala” deyish o‘rnig‘a “sharq kechasi, adabiyot hayot masalasi” deyish kerak. Forsiychaning “noma, xona” adot bo‘lib ishlatadigan so‘zlarini ham, “o‘g‘uznoma, jangnoma, kutubxona, bolaxona, qurxonona” kabi ism bo‘lib ketgan so‘zlarda saqlash kerak. Ammo yangidan bular bilan so‘z yasamoq to‘g‘ri emas. (“izm” bilan tuzalgon so‘zlarni quyida istiloh baxsida aloxida izox etamiz”)

### **Tarkib**

Bizning eski adabiy tilda arabcha va forsiycha tarkibi qzo‘ma so‘zlar anchagina uchraydi. Xattoki unday so‘zlar omma tilida ham ko‘rinib qoladi. Undoy qo‘shma so‘zlarni “Davlatxoh, Abdullo, Abdurraxim” kabi ism bo‘lib ketganlaridan boshqalarini albatta chiqorish kerak. “Nusrat baxshi, Sharifkanda, Dilshikasta, shikastaxotir, zulfiyor, ishq maxzub” kabi so‘zlarni yo‘qotish kerak. Bularning o‘zbekchaga kirganlarini tomom chiqorish, bo‘lmag‘onlarini “yorning zulfi, maxzubning ishq” shakllarida o‘zbek qoidasida tuzmak kerak (ispolkum kabi qisqortilg‘on qo‘shma so‘zlar ustida quyida izoxot beramiz).

### **Istilox**

O‘zbekchaning (o‘zbekcha bo‘lmag‘on) so‘z va qoidalarig‘a nisbatini ko‘rib o‘tdik. Endi yangidan kerak bo‘ladig‘on so‘zlar ustida fikrlashamiz.

O‘zbekchaga yangi so‘zlarni istilox uchungina olamiz. Qisqog‘ina jumlada aytilgon bu fikr anchagina qiyin va chigal juda bechoradur. Asriy va madaniy yangi mavhumlarni ifoda qilmoq uchun ko‘b yangi so‘zlarga muxtojdur. Bu ehtiyojni xozir har bir yozuvchi (angloshilg‘on va kerak bo‘lg‘on qadarini) o‘z-o‘zicha usul va sistemasiz shaklda ado qilib ketmakdur. Albatta bunday muhim masala ustida sistemasiz ishlar ko‘rmak, har bir yozuvchini yangi so‘zlar yaratmog‘i tilda bo‘xron va tanglik tug‘diradi. Bunday bo‘xron uqba va oxirat tushinilgan davrlarda san’at sanalsada, ammo zamonimiz kabi “har bir voqti bir fursat” sonolg‘on zamonda zarari katta bo‘ladi, uning uchun istilox masalasida xozirdan hech bo‘lmasa asosiy qoidalar belgilamak kerak.

### **Istiloxlar qanday olinurlar**

Istiloxlarni butun o'zbeklashdirmak mumkin emasdur. Bu yo'lda chig'atoy gurungining qilib ko'rgan tajribasi bizga yetarlik darsni bergandur. Hamma istiloxni arabcha va forsiychadan olaberish albatta to'g'ri emas. U tillarning yangi nasil uchun ovrupo tillaridan yaqinlig'i yo'qdir. Hamma istiloxni ovro'po tillaridan olaberish ham to'g'ri bo'lmaydi. Olinadig'on so'zlar juda ko'b bo'lg'ong'a ko'ra xalqning zexniga yaqin, ohangiga to'ymaydigan har bir so'zni olaberish tilning xususiyatlariga xalal beradi.

Shu xolda tilning rux va ohangini mumkin qadar nazarda tutib, o'rta bir yo'l tutish lozim bo'ladi. Buning uchun menimcha uch nuqtadan qorob asos tutish kerak.

1) o'zbekcha arabcha va forsiychadan o'tub o'zlashib ketgan istilox so'zlariga qorosh kerak. Bulardan o'zbekchaga singib qolg'on va yangi tilda ham o'rin olg'on so'zlarni yerlarida qo'yaberish kerak.

Bu asosga ko'ra "ilm muallim, falsafa, faylasuf, maorif tabbiyot, tabiat, ijtimoiyat, rais, kotib, nazim, nasr, adib, adabiyot, uslub, ism, fe'l, sifat, lug'at, qomus, riyoziyot, xisob" kabi har fanda sonlari anchagina bo'lg'on so'zlarni soqloshg'a to'g'ri keladi. Uning kabi so'zlardan ba'zilarini chiqormoq bo'lg'onda ulardan muvofiqroq va mashuhrroq asriy bir so'z topmoq lozim bo'ladi. Ammo eskida chig'atoy gurungining qilg'oni hozirda ham ba'zi yozuvchilarning qilg'onlari kabi unutilib ketgan eski so'zlardan topib qo'ymoq yoki "atamachiliq, tizim, sochim" kabi yangi so'zlar yasomoq, tildagi buxronni ortdirishdan boshqa natija bermaydi. Uning kabi xarakatlarning milliy havasini qitiqlamoqdan boshqa xusnlari yo'qdir. Uning uchun juda ham yaqin bir munosabat aloqa topilmag'onda eski unutilg'on so'zlarni tirgizish va yangidan turkiy asllaridan so'z yasashdan soqlonish kerak. Chunki undan so'zlar unutilg'onda tarixiy omil va sabablar bilan unutilg'ondur, ularni tirgizish boshqa chora topilmog'ondag'ina mumkindur. Shaxslar tomonidan yangi so'zlar yosolib, jamiyat tomonidan qabul bo'lishining o'zi aloxida bir masaladur. Chunki jamiyat o'z ruxiga kelmagan so'zni qabul qilmasdan chiqorib tashlay beradi. Bunday tajribalarga o'rungandan ko'ra, bir daraja jamiyatga o'tkan va hech bo'lmasa boshqa jamiyatlarga o'tkan so'zlarni qabul qilmoq yana ham qulay va maqbul emasmi? Voqean, ba'zi millatlarning "lisoniat" tarixlaridan bunday xarakatlarning bo'lib o'tkani ko'rinsada, ularning milliy maqsad va zehniyatlari uni toqozo qilg'ondur. Bizda bo'lsa bu xol yo'q. Bizning masalaga yolg'uz ilmiy va amaliy jihatdan qoroshimiz, uzun, tadrijiy va bo'sh yerga qilinadig'on tajribalardan saqlanmog'imiz kerak.

Boshqa turkiy (usmonlicha, uyg'urcha, ozorcha, qozoqcha va totorcha) tillardan ham so'z va istilox olmoqqa yaqin va mushtarak bir munosabat bo'lmasa, undan ham saqlonish lozimdur. Chunki turkiy tillar asl ona tilidan ayrilg'ondan keyin, kerak tovush, kerak lug'ot va kerak ohang e'tibori bilan bir-birlaridan uzoq

tushganlar. Ulardan soʻz olmoqning boshqa tillardan olishdan farqi yoʻq darajadadir. Asosan u tillarda asrilashgan Yovropuyi soʻzlardan va yoki mavjud va tonilgʻon arabcha va forsiychadan muvofiqroq soʻzlarning topilishi qorongʻidir. Shu xolda oʻzbek omma tilida “oʻzboshimchaliq” adabiy tilda “ixtilot” bor ekan usmonlichadan “boshboshtoqliq” ni oʻzbekchada barham qisqa va fosixrak “kechish” bor ekan, “kechish” “toʻgʻrilash” bor ekan, “qobillash” kabi soʻzlarni olishni tark qilish kerak. Buning kabi soʻzlarni oʻzbek shevasida soʻzlashning ogʻirligʻi ham koʻrinib turgʻon gap, bu toʻgʻrida bir uygʻur yozuvchisining “oʻzbeklar har bir shevadani soʻz olsalar tillarini boyitadilar, yaxshi qiladilar” deb maqtab yozishi toʻgʻri emasdir.

2) yangi istiloxlar uchun omma tiliga murojaat qilish kerak. Omma tilida eski va yangi adabiy tillarga oʻtmagan juda fasix va baligʻ soʻzlarni uchratish mumkindir. Undoy soʻzlar yangi texnika uchun topilmagʻonda ham, ziroat, nabotat, xayvonot, joʻgʻrofiya va umuman tabiiy narsalarda koʻr topiladi. “Yondama, kungay, teraska, qir, qirgʻoq, bil, oʻrgach” kabi yolgʻiz necha “tur” larini kshrsatgan; “qulun, toychoq, toy, gʻunan, dunan, ot” kabi yolgʻiz ot navining oʻsish “tur”larini koʻrsatgan soʻzlarning va buning kabi boshqa koʻb taʻbir va istiloxlarning boʻlishlari bizga bu fikrni beradi. Omma tilining yangi mavhumlari uchun yaratuvchiligʻi ham diqqatga olinorliqdur. Masalan, omma tilida “puyuzd” ga tamoman boshqa ism bilan “otash arava, temir yoʻl” deyilgani yoki uni soʻzda buzub “poyiz” deyilgani, “traktur” ga “oʻt omoch” deyilgani koʻriladi. Buning kabi dalillarni koʻzda tutmoq va ularga tobeʻ boʻlmoq kerak.

3) istiloxlarni Ovrupa tillaridan, xususan, oʻzbekcha bilan xayot shariga boʻlgʻon ruschadan olish kerak. Asosan bunday soʻzlar zarurai va extiyojga koʻra anchagina oʻtib qolgʻon va oʻtib boradi. Bularni bir sistemaga qoʻymoq lozim.

Biz qisqortirilgʻon soʻzlarni oʻz-oʻzlaricha qabul qilishimiz kerak. “Ispolkum, xilochkum, texnikum, SOKU, SOGU” soʻzlarini yerlarida saqlashimiz lozim. Chunki buning kabi tabirlar ilmiy, siyosiy, iqtisodiy belgili yangi mavhumlarni koʻrsatgan va ishning ahllari tomonidan yasalgʻon soʻzlardur. Ular qondoy shakilda boʻlsa ham, oʻzbek xalqi uchun yangi boʻlurlar. Shu sababli amalga oshqon buning kabi soʻzlarni buzush toʻgʻri boʻlmoydur.

“Izm” bilan qoʻshulib isim xoligʻa oʻtgan “kopitalizm, kommunizm, bolshevizm” kabi soʻzlarni ham qabul qilmogʻimiz kerak. Voqean bu bizning yuqorida izox etkan “adat vasigʻa” toʻgʻrisidagʻi asoslarimizga qarshi kabi koʻrinar, lekin bu shakil soʻz turush, madaniyat olamida juda ham shuhrat topib ketgan. Shuning barobarida ulardan kuchi sigʻa mohiyatidan chiqib, ism xoligʻa aylanganlar. Bunday soʻzlarni buzub “lik” bilan tuzush bizga yana ravshanlik bera olmaydi. Chunki ular yangi maʼnaviy mavhumlar boʻlgʻonlari uchun, qanday

shaklda bo'lsada ta'rifga va izoxga muxtoj so'zlardur. Izoh etkanda aslini izoh qilmoq yana oson va amaliyrak bo'ladi.

Har bir fanga istiloxlar ustinda yana uzunroq tshqtosh lozim bo'lsada, ular bir daraja tafarruot bo'lg'onlarindan bu yerda ulardan baxs eta olmadiq.

#### Qomus va sarf

Til to'g'risinda so'ngg'i so'zimiz, asry istiloxi so'zlarni izox etkan va ahil kishilar tomonindan tuzulgon bir qomus kerak. So'ngra u qomusning muqobillarini omma xalq tilidan axtorish, bularni bir-birlariga solishdirish kerak. Omma tilini tekshirishda asil masalada ixtisos bo'lmag'on har bir muallimlarga murojaat qilish emas, balki ahil va ixtisos egasi bo'lg'on kishilar tomoninidan etagi shahar-shahar, qishloqma-qishloq yurub tekshirilmagi kerak. Bu ikki ish tezdin qilinadig'on ishlardandur. So'ngra o'zbekchanning muvassal qomusini va mufassal sarfini yasob, chiqormoq uchunkirishmak kerak. Ayniqsa, sarfini yasamoq juda muhimdur. Chunki o'zbekchanning o'z orosida ham sheva turlari ko'bdur. Shevalar orolarida sarf ilmini aloqador qiladug'on farqlar ko'b va kattadurlar, masalan, Toshkandda "kelivotman" Farg'onada "kelyappan" Namanganda "kevuttiman" Buxoro va Samarqandda "keloppan" buning kabi "bormiydilar mi, bormaydilar mi, bormoydilar mi" deyiladi. Mana shunga o'xshash ayirmolarni belgilash va fandoy shakilda tuqtotmoq uchun sarf ilmiga ahamiyat berish zarurdur.

Izoxotimiz orasidag'i taklif mohiyatida bo'lg'on asoslarni modda-modda sonob chiqomiz.

- 1) adabiy tilni omma tiliga yaqinlashdirish
- 2) tilni soddalashtirish.
- 3) o'zbekchada muqobili bo'lg'on hamda omma tiliga singgon arabcha va forsiycha so'zlarni chiqorish
- 4) turkiychada muqobili bo'lg'on hamda shevaga bir daraja singgan – o'rmoshqon arabcha va forsiycha so'zlarning o'zbekchalarina saqlash.
- 5) o'zbekchadagi muqobillari arabcha va forsiycha qodor ma'lum bo'lmoso unday so'zlarni shevada saqlash.
- 6) o'zbekchada muqobili bo'lmag'on, bo'lsa ham unutilib ketgan arabcha va forsiychalarni yerlarida saqlash.
- 7) omma tilining buzub o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarda ishlatib yuborg'on so'zlarni omma qo'llag'ondek ishlata berish
- 8) boshqa tillardan sig'a mohiyatida so'z olmasliq.
- 9) boshqa tildan adat ham olmasliq borlarni chiqorish.
- 10) boshqa tilning tarkibi – qo'shma so'zlarini olmasliq.
- 11) o'zbekchaga va uning adabiy tiliga singib qolg'on arabcha va forsiycha istiloxi so'zlarni saqlash.



12) yangidan kerak bo'ladig'on so'zlarni birinchi navbatda omma tilidagi ma'lum so'zlardan oxtarish.

13) omma tilidan munosib so'z topilmag'onda ma'lum istiloxlarni Ovrupa tillaridan – ruschadan to'g'ridan to'g'ri ola berish.

14) asriy istiloxlarni ta'rif etkan bir qomus yososh.

15) asriy istiloxlarning muqobillarini omma tilidan oxtarish, bu ishning mutaxassisi kishilar tomonidan bajarilishi kerak.

16) o'zbekcha mufassal qomus yososh.

O'zbekcha mukammal sarf yososh uchun asos qo'rish.

Ustida yetarlik mulohaza yurmagan bir til to'g'risida bir necha saxifa ichida berilgan mulohazalar albatta nuqsonsiz bo'lmaydi. Bu asosiy nuqtalarnig'ina xotirlatqon kichik bir mulohazadur. Undog'i nuqson va yanglishlarning masalaning ahllari tomonlaridan tuzatilmagi yozuvchini albatta xursand qiladi.

***Miyon Buzruk "Til imlo masalalari".***

***(maqola va materiallar to'plami) Toshkent, 1929.***

***171-187-betlar***